MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 418  <b>Shaxnoza Allaberganova</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning nazariy-metodologik va falsafiy asoslari ..... 421  <b>Aknur Junisova</b></p> <p>Pedagogical Strategies for Forming Social Responsibility and Active Citizenship Competence in Primary Education..... 425  <b>Aknur Zhunisova</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy xavf turlarini tasniflash va ekotizimli yondashuv asosida diagnostika qilishning pedagogik imkoniyatlari ..... 430  <b>Manzura Qosmuratova</b></p> <p>Raqamli pedagogika va interaktiv innovatsiyalar asosida xorijiy til o'qitish: yangi ufqlar va ta'lim samaradorligi ..... 437  <b>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</b></p> <p>Principles of Multilevel Assessment in Speaking..... 441  <b>Billayeva Shohida Dilshod qizi</b></p> <p>Ingliz tili mutaxassslarining uslubiy kompetensiyasi va kommunikativ-metodik kompetensiyasi masalalari muammolari ..... 444  <b>Azimova Maxfuza Hasanovna</b></p> <p>Sun'iy intellektning ta'limda qo'llanilishi va talabalar qadriyatlar tizimi rivojlanishiga ijtimoiy-psixologik ta'siri ..... 448  <b>Boboyev Xamdani Ataxanovich</b></p> <p>Muloqot: shifokor va bemor muloqotining psixologik xususiyatlari ..... 451  <b>Isroilova O'g'iloy Isroil qizi, Davronov Abdurahob Turg'unbo'y o'g'li</b></p> <p>Bo'lajak o'qituvchilarni web lohiyalar va axborotlashgan ta'limdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy xususiyatlari ..... 454  <b>Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatullo o'g'li</b></p> <p>Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari ..... 460  <b>Mirzaolimova Munira</b></p> <p>Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy asoslari..... 465  <b>Musayev Ashurali Shamshidinovich</b></p> <p>Ona tili ta'limida kreativ salohiyatni rivojlantirishning faoliyatli xususiyatlari ..... 469  <b>Qurbonova Oysha Beknazarovna, Qo'z'iyeva Gulshoda Baxtiyor qizi</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy jahon ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ..... 472  <b>Sagdatdinova Maftuna Nuratdin qizi</b></p> <p>Ikkinchi jahon urushi davrida front ortida o'zbek xotin-qizlarining qahramonliklari (1941–1945)..... 475  <b>Saidova Iroda Xursandovna</b></p> <p>Maktab menejmenti: ma'muriy boshqaruvdan inson kapitalini rivojlantirishga o'tish..... 479  <b>Tursunpo'latov Farxodjon Xoshimjon o'g'li</b></p> <p>Jismoniy tarbiya tizimida jismoniy tayyorgarlik sinovlari orqali salomatlikni baholashning kompleks yondashuvi ..... 485  <b>Usmonov Mansur Qurbonmurotovich</b></p> <p>Kredit modul tizimida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining fasilitatorlik kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari..... 489  <b>Xamidova Sabrina Abdurahob qizi</b></p> <p>Sun'iy intellekt vositalari yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..... 496  <b>Akhmedov Hasan Uzairovich</b></p> <p>Slalomda eshakk eshuvchi sportchilarning psixologik xususiyatlari ..... 502  <b>Abdakimov O'tkirbek Abduraupovich</b></p> <p>O'smirlarda o'z-o'zini baholash shakllanishiga oilaviy munosabatlarning psixologik ta'siri ..... 506  <b>Duvlayeva Yulduz Kubayevna</b></p> <p>Talabalarning raqamli savodxonligini fanlararo integratsiya asosida rivojlantirishning dasturiy ta'minotini joriy etish metodikasi ..... 511  <b>Ergasheva Xilolaxon Muydinjonovna</b></p>
-------------------------------------	--



“Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ingliz tili darslarida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda vaziyatli o’qitish” (Situational learning) metodlaridan samaradorli foydalanish .....	515
<b>Ilhomova Sh. I.</b>	
Sanogen tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	522
<b>Komilov Izzatillo Ikromjonovich</b>	
Nikoh ajralishlarining ob’ektiv va sub’ektiv sabablari o’rtasidagi statistik tahlilni baholash .....	525
<b>Shodiyeva Nodira Normamatovna</b>	
Tinglovchilarda refleksiv ko’nikmalarni rivojlantirishdagi zamonaviy texnologiyalari .....	528
<b>Usmanaliyeva Orzigul</b>	
Shaxs tizimidagi karakterologik aksentuatsiyalar suitsidal xulq-atvorni paydo qiluvchi psixologik omil sifatida .....	531
<b>Eshqulov Shavkat Rustam o’g’li</b>	
Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar xususiyatlari .....	536
<b>Muxayyo G’ulomovna Muminjonova</b>	
Maktabgacha ta’limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	540
<b>Xoldorova Mashxura G’ulomovna</b>	
Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining konfliktologik komponentlarini rivojlantirish .....	544
<b>Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</b>	
Boshlang’ich sinf matematika darslarida “5E” modeli asosida ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari .....	549
<b>Karimova Sevara Shaxriddin qizi</b>	
XIX asr Qo’qon adabiy muhitida hajviyot badiiyati (Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Qoriylar ijodi misolida) .....	552
<b>Abduraximova Zuxroxon Soyibjon qizi</b>	
Ta’lim tizimida pedagoglarning stressga bardoshlilikini oshirishning innovatsion yondashuvlari .....	557
<b>Usanova Bahoroy Eshpo’lat qizi</b>	
Дидактические возможности искусственного интеллекта в дифференцированном обучении младших школьников .....	562
<b>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Шихназарова Сайёра</b>	
Nutq madaniyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi .....	566
<b>Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Chorshanbiyeva Mahliyo Sherali qizi</b>	
Interaktiv metodlar orqali raqamli savodxonlikni rivojlantirish .....	571
<b>Jahonova Xolida G’anisher qizi</b>	
Badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish .....	576
<b>D. N. Adilova, M. A. Irgashova</b>	
Badiiy matnda takror qurilmalarning qo’llanishi: “Otamdan qolgan dalalar” romani misolida .....	579
<b>Gulzoda Uzoqova Ramazonovna</b>	
Raqamli turizm texnologiyalari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida madaniy-ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish modeli va metodik ta’minoti .....	584
<b>Ismatova Dilorom Hotam qizi</b>	
Ijtimoiy tarmoqlarning o’smirlar o’z-o’zini baholashiga psixologik tasiri .....	589
<b>Karatayeva Zamira Zakrulla qizi, Anvarova Muslima Boburjon qizi</b>	
Ichki va tashqi motivatsiyaning talabalar faoliyatidagi roli .....	594
<b>M. K. Muradova</b>	
Talabalarda ehtimoliy tafakkurni rivojlantirishda cheksiz o’lchamli stoxastik operatorlar dinamikasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari .....	596
<b>Madina Rasulova</b>	
Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish metodikasi .....	600
<b>Mallayeva Gulshada Maxmudjonovna, Kurbanov Fazliddin Batirovich</b>	
O’quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari .....	604
<b>Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna</b>	
Tibbiy-pedagoglarda akmeologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlari, mezonlari va ko’rsatkichlari .....	606
<b>Xayitova Shahnoza Daniyarovna</b>	

# BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR XUSUSIYATLARI

Muxayyo G'ulomovna Muminjonova

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchi, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik innovatsiyalarning o'rni, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion metodlardan foydalanish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil faoliyati va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik texnologiya, innovatsion metodlar, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, interfaol usullar.

**Abstract:** The role, significance, and specific features of pedagogical innovations in the process of training future primary school teachers are analyzed. Issues related to the implementation of modern pedagogical technologies in the educational process, the use of innovative methods, and the development of professional competencies are examined. Furthermore, the effectiveness of innovative approaches in developing creative thinking, independent activity, and practical skills of future teachers is scientifically substantiated.

**Key words:** pedagogical innovation, primary education, future teacher, pedagogical technology, innovative methods, professional competence, quality of education, interactive methods.

**Аннотация:** Рассмотрены роль, значение и особенности педагогических инноваций в процессе подготовки будущих учителей начальных классов. Проанализированы вопросы внедрения современных педагогических технологий в образовательный процесс, использования инновационных методов и развития профессиональных компетенций. Также научно обоснована эффективность инновационных подходов в формировании творческого мышления, самостоятельной деятельности и практических навыков будущих педагогов.

**Ключевые слова:** педагогическая инновация, начальное образование, будущий учитель, педагогическая технология, инновационные методы, профессиональная компетенция, качество образования, интерактивные методы.

## KIRISH

Ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalar yangilangan texnologiyalarni ta'lim va yosh avlod tarbiyasida qo'llashni o'z ichiga oladi. Ular amaliyotga yangi ta'lim tizimini joriy etish imkonini beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday ta'lim uning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim va o'quv jarayonining keyingi vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar murakkab muammolarni hal etish uchun ijodiy metodlarni topish, innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish va ijodiy jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarni qo'llash masalalari pedagogika sohasida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

N.H. Avliyoqulov pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yoritib, o'qitishning modul tizimi ta'lim mazmunini tizimli tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi <sup>[1]</sup>. Muallif pedagogik texnologiyalarni ta'lim sifati va natijadorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholaydi.

Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv masalalari D. Adizov hamda N.N. Azizxo'jayeva tadqiqotlarida ham yoritilgan. D. Adizov ijodiy ta'lim muhitini shakllantirish va pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi <sup>[2]</sup>.



N.N. Azizxo'jayeva esa pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi ta'lim samaradorligining muhim mezonlaridan biri ekanligini asoslaydi<sup>[3]</sup>.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va amaliyotga tatbiq etish masalalari L.V. Golish hamda K.Z. Zaripov tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. L.V. Golish ta'lim mazmunini innovatsion yondashuv asosida loyihalashtirish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishini ta'kidlaydi<sup>[4]</sup>.

K.Z. Zaripov esa pedagogik kadrlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodologik asoslarini yoritib bergan<sup>[5]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar xususiyatlarini aniqlash maqsadida ma'lumotlarni yig'ishning nazariy va empirik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot uchun pedagogika, ta'lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv-metodik manbalar hamda pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va pedagogik texnologiyalardan foydalanish holatini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va so'rov usullaridan foydalanildi.

Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tavsifiy va tahliliy usullar yordamida qayta ishlanib, pedagogik innovatsiyalarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida hal qilish maqsadida qo'llanilib, avvalgiga nisbatan samaraliroq natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar hisoblanadi. Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalarini qo'llanilishiga ko'ra bir necha turga ajratish mumkin. Ya'ni, faoliyat yo'nalishiga, kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga hamda o'zgarishlarning xususiyatiga ko'ra tasniflash mumkin. Yuqoridagi innovatsiya turlari quyida berilgan chizma orqali kengroq yoritilgan.

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega.

Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilish imkonini beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqat tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa, u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, innovatsiya deb ataladi.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi hamda uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lim tizimiga ham bog'liq ekanligini hisobga olish kerak. Shu bilan birga, intellektual salohiyatning o'sishi va sifat darajasida rivojlanishi nafaqat ta'lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini rivojiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini asosiy omil sifatida belgilash hisoblanadi.

Ta'lim tizimini isloh qilish zaruratini anglab yetish amaliyotda ta'lim muassasalarining innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda. Bu esa o'zini innovatsion maydonda ko'ra olish va aniq yangiliklarni o'zlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur holat bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi, chunki ushbu innovatsion jarayon ta'lim muassasalarining yashash sharti, kelajak avlod va pedagoglar jamoasining ijtimoiy himoyasini ta'minlash omili sifatida ham xizmat qiladi. Hayot ta'lim muassasalari oldiga yangi, avval amalga oshirib bo'lmaydigandek tuyulgan vazifalarni qo'yimoqda. Ya'ni, an'anaviy faoliyat bilan bir qatorda, yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Barcha yangiliklarga ehtiyotkorlik bilan yondashadigan, o'tmish boyliklari va tajribalariga sodiqlik ruhida tarbiyalangan, barqarorlikni yoqtiradigan keksa avlodni, shuningdek, har qanday o'zgarishlarni xohlamaydigan

pedagoglarni ham tushunish mumkin. Biroq “innovatsion jarayonlar ortidan quvish” bugungi hayotimizning ajralmas qismi ekanligini anglash zarur. Xohlaymizmi yoki yo‘qmi, ta‘lim muassasalari faoliyatiga bozor va bozor munosabatlari kirib kelmoqda. Bu jarayon bevosita ta‘lim muassasalariga ham taalluqli bo‘lib, ular o‘rtasidagi raqobat, ta‘lim sifati va ijtimoiy buyurtmalar tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayon biz yashayotgan muhit va hayot tarzining tarkibiy qismiga aylangan. Unga qarshi turish samarasiz va xavfli hisoblanadi. Biz ushbu tezkor jarayonda ishtirok etishga majburmiz. Bunda eng muhimi – mazkur jarayonda aql bilan, foydali tarzda va ta‘lim muassasasi manfaatlarini ko‘zlagan holda ishtirok etishdir. Ko‘pchilik mutaxassislar fikriga ko‘ra, o‘zgarishlarga moslasha olish bugungi kunda rivojlanishning hal qiluvchi omili va ta‘lim muassasasining raqobatbardoshligini ta‘minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda maktab va oliy ta‘lim tizimidagi an’anaviy hamda ommaviy ko‘rinishdagi ta‘lim-tarbiya jarayonlari o‘rniga innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in – “ichki”, novus – “yangi”) yangilik kiritish degan ma‘noni anglatadi. “Innovatsion ta‘lim” deganda odatda o‘quv jarayoniga yangi va foydali elementlarni olib kirish tushuniladi. Shu sababli ta‘lim tizimidagi innovatsiyalar o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Bunday o‘zgarishlar ta‘lim tizimining:

- maqsadi, mazmuni, metodlari, texnologiyalari, tashkil etish shakllari va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o‘ziga xosliklar va o‘quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta‘lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o‘quv-metodik ta‘minotga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o‘quv rejaları va dasturlariga;
- o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq.

Yangilik tarixiy aspektda nisbiy ahamiyat kasb etadi. Yangilik aniq tarixiy xarakterga ega bo‘lib, u o‘z vaqtdan oldin paydo bo‘lishi, o‘z vaqtida me‘yor bo‘lishi yoki eskirishi mumkin.

Maktab yoki oliy ta‘lim tizimining rivojlanish jarayonida, ehtimol, ta‘lim tizimi butunligicha quyidagi holatlar hisobga olinadi:

- absolyut yangilik (o‘xshashi yoki prototipining yo‘qligi);
- nisbiy yangilik;
- o‘ziga xoslik va ixtirochilik.

Yangilik turlari maktab va oliy ta‘lim tizimida turli asoslarga ko‘ra guruhlanadi. Birinchi klassifikatsiya yangiliklarni pedagogik jarayonga aloqadorligiga ko‘ra tasniflaydi.

Ushbu jarayonni tushunishga tayangan holda quyidagi yangilik turlarini ajratish mumkin:

- ta‘lim maqsadi va mazmuniga;
- pedagogik jarayon metodikasi, vazifalari, usullari va texnologiyalariga;
- ta‘lim va tarbiyani tashkil etish shakllari hamda vositalariga;
- rahbariyat, pedagog va o‘quvchilar faoliyatiga.

Ta‘lim tizimiga oid ikkinchi klassifikatsiya yangilikni kiritish ko‘lami belgisiga asoslanadi. Bu yerda quyidagi o‘zgarishlar ajratiladi:

- bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan lokal va alohida o‘zgarishlar;
- kompleks va o‘zaro bog‘liq o‘zgarishlar;
- butun maktab va oliy ta‘lim tizimini qamrab oluvchi tizimli o‘zgarishlar.

Uchinchi klassifikatsiya innovatsion imkoniyatlarga qarab amalga oshiriladi. Bunda quyidagilar e‘tiborga olinadi:

- ta‘lim dasturlari, o‘quv rejaları va tuzilmalarni takomillashtirish bilan bog‘liq modifikatsiyalar;
- kombinatorlik xususiyatiga ega o‘zgarishlar;
- radikal o‘zgartirishlar.

Yangilik kiritishning to‘rtinchi klassifikatsiyasi avvalgi tizimlarga nisbatan belgilariga asoslanadi. Bunda yangiliklar o‘rin almashuvchi, bekor qiluvchi yoki ochib beruvchi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Mazkur holatda maktab va oliy ta‘lim tizimida yangilanish manbalari sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- mamlakat, hudud, shahar va tuman ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy buyurtmalar;



- ijtimoiy buyurtmalarning qonun va hujjatlarda aks etishi;
- inson haqidagi kompleks fanlar yutuqlari va ilg'or pedagogik tajribalar;
- xato va kamchiliklarni aniqlashda rahbar hamda pedagoglarning intuitsiyasi va ijodkorligi;
- tajriba-sinov ishlari;
- chet el tajribalari.

Mamlakatimizda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta'lim oldiga muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'yimoqda. Fan va innovatsiyalarni kelgusida rivojlantirish strategiyasida "innovatsion inson"ni shakllantirish, ya'ni faoliyatidan qat'i nazar har bir shaxsning innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo'lishi zarurligi ta'kidlanmoqda. Bugungi kunda zamonaviy innovatsion tafakkur shakllanmoqda.

Hozirgi milliy loyihalar tizimida "innovatsion ta'lim" iborasi keng qo'llanilmoqda. Unda innovatsion ta'lim yangi bilimlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladigan ta'lim sifatida talqin etiladi. Bu esa mavjud "innovatsion ta'lim texnologiyalari" tushunchasi bilan "innovatsion ta'lim" tushunchalarini bir-biridan farqlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta'lim sohasi mamlakatimizda innovatsion harakatni birinchilardan bo'lib boshlagan yo'nalishlardan biridir. Ma'lum bosqichda XX-asr oxirlarida bunday harakatlar yo'lga qo'yilgan edi.

Yuqorida keltirilgan texnologiyalar o'qitishda o'zlashtirish darajasini oshirish, o'quv jarayoniga qiziqishni kuchaytirish, o'quv materialini tushunishni yaxshilash, funksional savodxonlikni shakllantirish, loyihaviy savodxonlikni rivojlantirish, nazariy tafakkur, ekologik va iqtisodiy tafakkur, kommunikativlik, ijtimoiy faollik, fuqarolik ongini, o'z-o'zini anglash va boshqa vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan edi.

Hozirda boshqa faoliyat sohalari, jumladan ishlab chiqarish ham innovatsion rivojlanish yo'lga o'tgach, ta'lim sohasi ularga yetakchi mutaxassislarni tayyorlash funksiyasini bajarmoqda. Shu bilan birga, innovatsion tafakkur va innovatsion faoliyatga yo'naltirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Pedagogik ta'lim sohasida keyingi yillarda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi yagona hamda yaxlit tizim sifatida innovatsion xarakter kasb etib, bir qator muhim jarayonlarga e'tibor qaratilmoqda.

An'anaviy pedagogik ta'lim mazmuni va tashkil etilishi jihatidan ma'lum o'quv fani bo'yicha mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning an'anaviy tizimida faoliyatli yondashuv asosida o'quv-tarbiyaviy jarayon tashkil etiladi va bu jarayonda ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar subyekt-obyekt tarzida yo'lga qo'yiladi. Bu yerda subyekt – o'qituvchi ma'lum chegaralangan sharoitda faoliyat olib boradi, uning faoliyati o'quv rejalari va dasturlari orqali boshqariladi hamda munosabatlar qat'iy belgilab qo'yiladi.

Pedagogik jarayonlarning mohiyatini chuqur anglash va ularni tizimli tadqiq qilish pedagogik jarayon hamda qonuniyatlarni yaxlit holda o'rganishni zaruratga aylantirdi. Pedagogik holat o'z xususiyatiga ko'ra ko'plab ta'sir va omillarga duch keladigan murakkab tizim hisoblanadi. Mazkur ta'sirlarning ayrimlarini boshqarish mumkin bo'lsa, boshqalari obyektiv mavjud bo'lib, boshqaruv markazi ta'siriga bog'liq bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, tizimli yondashuvni amalga oshirishda ularni inobatga olish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan keng foydalanish, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda ta'lim amaliyotiga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyoqulov N.H. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyaning amaliy asoslari. – B., 2001. – 100 b.
2. Adizov D. Ijodiy ta'lim jarayoniga tizimli yondashish // Xalq ta'limi. – 2001. – № 4. – B. 102–104.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.
4. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmuni loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. – T.: TESIS, 2001. – 59 b.
5. Zaripov K.Z. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimini metodologik tadqiq qilish // Xalq ta'limi. – T., 2003. – № 3. – B. 15.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.